

MEDIATA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TASHKIL ETISH VA TANQIDIY  
YONDASHUVLAR ASPEKTLARI

Yuldasheva Sarvinoz Yusupovna

*JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tahsil oluvchilarda mediakommunikativ qobiliyat va tanqidiy tafakkurni kamol toptirish, medianing ijtimoiy va siyosiy aspektlari, referent tizimini va ommaviy kommunikatsiya kanallari orqali boruvchi xabarlarga tanqidiy munosabatini shakllantirish masalalari borasida soʻz yuritilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *mediakommunikativ qobiliyat, tanqidiy tafakkur, integratsiyalashgan, yondashuv, muhofaza, yaxlitligi, koʻnikma, shakllantirish, tadqiqotlar, konsepsiya.*

**Abstract:** *This article discusses the development of students' media communication skills and critical thinking, the social and political aspects of the media, the system of references and the formation of a critical attitude to messages through mass communication channels.*

**Keywords:** *media communication skills, critical thinking, integrated, approach, protection, integrity, ability, formation, research, concept.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются вопросы развития у студентов навыков медиакоммуникации и критического мышления, социальные и политические аспекты СМИ, система ссылок и формирование критического отношения к сообщениям через каналы массовой коммуникации.*

**Ключевые слова:** *медиакоммуникативные навыки, критическое мышление, комплексность, подход, защита, целостность, способность, формирование, исследование, концепция.*

Mediata'lim berishdan maqsad tahsil oluvchilarda mediakommunikativ qobiliyat va tanqidiy tafakkurni kamol toptirishdan iborat. Bunga esa o'quv muassasasi ixtisosligidan kelib chiqqan holda mediata'lim berishning bazaviy kasbiy va kengaytirilgan kurslari yordamida erishiladi. Bazaviy kurs turli tipdagi maktablar (to'garak va shunga o'xshash) da qo'llanishi mumkin. Aynan A.V.SHarikov birinchilardan bo'lib mediata'lim muammolarini yaxlitligicha o'rganishni boshladi. Qator chet el tadqiqotlarini tahlil etish asosida olim mediata'lim sohasining uch muhim konsepsiyasini ajratib ko'rsatdi:

□ mediasavodxonlik konsepsiyasi, bunda asosiy e'tibor kommunikatsiyaning noverbal usullarini va mediamadaniyat tilini o'qitishga qaratiladi;

□ axborot muhofazasi" konsepsiyasi - bunda media tilini o'rganish bilan bir qatorda mediamatnlar materiali asosida auditoriyaning tanqidiy tafakkur ko'nikmasi shakllantiriladi;

□ ijtimoiy-pedagogik konsepsiya - medianing ijtimoiy va siyosiy aspektlari ta'sirini, □katta" va □kichik" mamlakatlar mediamatnlarining □madaniy notenglik" deb ataluvchi muammolarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, mediata'limni maktab o'quv jarayoniga joriy etishning ikki asosiy yondashuvini tahlil qilingan bo'lib, bular integratsiyalashgan (turli fanlarni o'rganish doirasida) va maxsus (fakultativ yoki majburiy yangi bir fan kiritish) yondashuvlar.

Xorij mediata'limi sohasi metodikasini tahlili natijasida, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar usuli muammosiga e'tibor qaratilgan:

□ mashg'ulotlarda erkin muhit, ya'ni o'zaro ishonch muhiti, psixologik komfort yaratish;

□ axborotning polisemik (ko'p ma'noli) tavsifidan o'rinli foydalanish; mashg'ulotlarning qat'iy dasturlashtirilgan sxemalaridan voz kechish (improvizatsiya tamoyili);

□ axborotni talqin qilish variantlarining ko'p sonli bo'lishi qonuniyati; mashg'ulotlardagi barcha ishtirokchilarning, shu jumladan, o'qituvchining ham axborotga nisbatan tengligini e'tirof etish;

□ yaqin ijtimoiy-madaniy muhit hamda bolalarning qiziqishi va hayotiy tajribasiga qarab mo'ljalni olish.

Shu bilan birga mediata'lim berishni ikki teng huquqli maqsadi ilgari surilgan – mediamatnlarga nisbatan tanqidiy tafakkurni shakllantirish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning mediakommunikativ, ijodiy qobiliyatlarini, ya'ni mediamatnlarni qabul qilish, yaratish va uzatish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Mediakommunikativ kompetentlik (omilkorlik, xabardorlik) atamasini asoslab berilgan bo'lib, u texnik va semiotik tizimlar vositasida ularning cheklovlarini hisobga olib xabarlarni idrok etish, yaratish va uzatishda kompetentlikdir. U tanqidiy tafakkur yuritishga, shuningdek, boshqa odamlar bilan medialashtirilgan muvohiqotga kirishish qobiliyatiga asoslangan.

Medianing intensiv rivojlanishi sababli vujudga kelgan muammolarning butun spektri ham belgilab berilgan:

-media □parallel maktab” sifatida;

-media va an'anaviy ta'lim tizimi;

-media va bolalarni medianing salbiy ta'siridan □axloqiy himoyalash”;

-media va axborot jamiyati sharoitida tahsil oluvchilarni to'laqonli hayotga tayyorlash.

Ayniqsa bolalar va o'smirlarda qadriyatlar va axloq me'yorlarini shakllanishiga ommaviy kommunikatsiyaning ta'siri muammoasi muhim ahamiyat kasb etdi; □... endilikda o'sib kelayotgan avlodda qadriyatlarining referent tizimini va ommaviy kommunikatsiya kanallari orqali boruvchi xabarlarga tanqidiy munosabatini shakllantirmasdan bu muammoni hal etishning imkoni yo'q”. Tajriba dasturlarida asosiy mazmundor bloklar quyidagilarga ajratilgan: kommunikatsiya nazariyasining bazaviy tushunchalari va qonunlari; semiotik tizimlar, ularning tuzilishi va xususiyatlari; tahlil, talqin etish, baholash va pozitsiya qabul qilish ko'nikmalarini kamol toptirishga asoslangan xabarlarni idrok etish va tushunish; ommaviy kommunikatsiya vositalari (ontologik, tarkibiy, funksional, sotsial va boshqa aspektlar).

Dasturni amalga oshirish paytida asosiy e'tibor, muallifning fikricha, tahsil oluvchilar turli media shakllari bilan ijodiy topshiriqlarni bajarishi shart bo'lgan amaliy mashg'ulotlarga qaratilishi zarur. Bu barchasi turli mediamatnlarni anglash, tushunish, baholash, talqin qilish ko'nikmasini rivojlantirishga, tahsil oluvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga imkon beradi. Mediata'lim – ommaviy kommunikatsiya yordamida va materiali asosida shaxsni kamol toptirish jarayoni: aniqroq aytganimizda, media bilan muloqot madaniyati, ijodiy, kommunikativ qobiliyalarni, tanqidiy fikr yuritishni, mediamatnlarni to'laqonli qabul qilish, talqin etish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini, mediatexnika ko'magida o'z fikrini bayon qilishning turli shakllariga o'qitishni rivojlantirish jarayoni. Mediata'lim olish natijasida egallanadigan mediasavodxonlik insonga televidenie, radio, video,

kinematograf, matbuot, internet axborot maydoni imkoniyatlaridan faol foydalanishda qo'1 keladi, media madaniyat tilini yaxshiroq tushunishga ko'maklashadi. Mediata'limni quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'lish mumkin: 1) matbuot, radio, televidenie, kino, video va Internet olamida bo'lajak professionallar –jurnalistlar, redaktorlar, rejissyorlar, prodyuserlar, aktyorlar, operatorlar va boshqalar mediata'limi; 2) universitetlar va institutlarda, media madaniyat bo'yicha kurslarda oliy o'quv yurti va maktablarning o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonida bo'lajak pedagoglar mediata'limi; 3) mediata'lim maktab o'quvchilari, talabalar, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida tahsil oluvchilar umumiy ta'limining bir qismi sifatida. Bunday ta'lim o'z navbatida an'anaviy, kasbiy yoki maxsus fanar bilan integratsiyalashtirilgan bo'lishi mumkin; 4) qo'shimcha ta'lim muassasalari va dam olish markazlari (madaniyat uylari, maktabdan tashqari ish, estetik va badiiy tarbiya markazlarida, yashash joyidagi klublarda) mediata'lim; 5) maktab o'quvchilari, talabalar va katta yoshli kishilarni matbuot, televidenie, radio, video, DVD, Internet tizimi (bunda mediatanqid ulkan rol o'ynaydi) yordamida masofaviy mediata'lim berish; 6) mustaqil-uzluksiz mediata'lim olish (bu nazariy jihatdan insonning butun hayoti davomida amalga oshirilishi mumkin).

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abduqodirov A., Pardaev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
2. Djuraev R. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010.
3. Jo'raev H.O. Integratsiyalashgan mediata'limdan foydalanib muqobil energiya manbalariga oid ma'lumotlar berish// O'zMU xabarleri. – Toshkent, 2016.№1/5.
4. Mirsoatova M. Yosh jurnalist kadrlarni tayyorlashda mediata'lim tizimini olib borish jarayoni. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
5. Мурюкина Е.В., Челышева И.В. Развитие критического мышления студентов педагогического вуза в рамках специализации «Медиаобразование»: учеб. пособие для вузов / отв. ред. А.В. Федоров. Таганрог: Изд-во Кучма, 2007.